



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
III chorak O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan III chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Somoniylar (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
3.	Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
4.	G‘aznaviylar	1		
5.	G‘aznaviylar	1		
6.	Qoraxoniylar	1		
7.	Qoraxoniylar	1		
8.	Qoraxoniylar	1		
9.	Saljuqiylar	1		
10.	Saljuqiylar	1		
11.	5-Nazorat ishi	1		
12.	Xorazmshohlar davlati va uning yuksalishi	1		
13.	Xorazmshohlar davlati va uning yuksalishi	1		
14.	Xorazmshohlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
15.	Xorazmshohlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
16.	Xorazmshohlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
17.	Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining	1		
18.	6-Nazorat ishi	1		
19.	Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining	1		
20.	Mintaqada islom dinining yoyilishi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Somoniylar (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildira olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish, zamona huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlaridagi bilimdonlik va hokazo. Ismoil Somoniy saroyning maxsus muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo'shin tuzadi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar «hojib» lavo zimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul-hujob» yoki «hojibi buzruk» deb yuritilar edi. Bunday unvon Somoniylar saroyida oliy unvon hisoblangan. Lashkar ikki toifaga bo'lingan: doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar (gvardiya) va zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismlardagi xizmat kamida sakkiz bosqichdan iborat bo'lib, oddiy piyoda askarlikdan visoqboshi, ya'ni to'rt kishidan iborat guruhga boshliq darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishiga




Somoniylar hukmdori jangda.
Sari'at asari

mintaqada shakllangan yana bir siyosiy sulola — *g'aznaviylar* tobeligiga o'tgan edi. IX–X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra, o'z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a'zolariga ijaraga berishni afzal ko'ra dilar. O'sha zamonda ijarachilar «barzikor» yoki «qo'sh chilar» deb atalardi. Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, qo'shchilardan ham alohida-alohida olinar edi. Somoniylarning har biy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy ho kim larning o'zboshimcha harakatlari borgan sari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik yuzaga keldi. Hatto harbiylar, shu jumladan, amirning muntazam turk sarbozlari qo'shiniga maosh to'lash uchun mablag' topilmaydi. Bunday og'ir ahvoldan chiqish uchun aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Behad tartibsizlik mamlakatdagi vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholi turli tabaqalarining hokimiyatga qarshi qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Ismoil Farg'onada 849-yilda tug'ilgan. 14 yoshida otasi Ahmad vafot etib, akasi Nasr qo'lida qoladi. Manba tili bilan aytganda «aqli, adolatli, fikr va tadbir egasi» bo'lmish Ismoil, 892-yili butun Movarounnahr hukmini o'z qo'lga olishga erishib, «haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli» ekanini isbotlaydi... Ismoil davlatchiligimiz tarixidagi tajriba va an'analarni uddaburonlik bilan davom ettira bilgan davlat arbobi hisoblanadi. U, eng avvalo, mamlakatimiz siyosiy birligini ta'minlash ishiga bel bog'lab, Farg'ona, Isfijob, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag'oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlarni o'z hukmi ostida birlashtirdi...

Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan. Azamat Ziyov, «O'zbek davlatchiligi tarixi» Somoniylarning harbiy qismlarida, ma'muriy lavozimlarida turklar xizmat qilganlar. Turkiy qullar boshqa mamlakatlarga savdoga chiqarilgan. Qul qochib ketsa, uni hech kim qidirmagan. Somoniylar xizmatida ham turkiy qullar oz bo'lmagan. Bularning ichidan viloyat hokimlari, harbiylar, hatto davlat boshliqlari yetishib chiqqan: Samjuriy, Alptegin, Tosh, Foyiq va boshqalar shular jumlasidan.


Alptegin somoniylarning sobiq quli, keyinchalik yirik harbiy sarkarda, Xuroson viloyatining hokimi va yirik yer egasi bo'lgan. U boyib, Xuroson va Movarounnahrda joylashgan qishloqlarni sotib olgan, har bir shaharda qasri, hovli-joylari, karvonsaroylari mavjud bo'lgan. Alpteginning Nishopur bozoridan sotib olgan Sabuk (keyinchalik Sabuktegin) ismli yana bir quli o'z iste'dodi bilan yirik harbiy sarkarda darajasiga ko'tarilgan.

to'g'ri kelgan. Keyin u haylboshi (kichik qo'shin boshlig'i) maqomini egallashi mumkin bo'lgan. Bu darajaga tegishli tartib-intizom, talablar doirasida xizmat qilingandagina erishish mumkin edi. Ismoil Somoniyning vafotidan so'ng siyosiy boshboshdoqlik avjiga chiqib, markaziy hokimiyat mavqeyiga putur yetishi mintaqaning Yettisuv va Qoshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola — *qoraxoniylarning* kuchayib borishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Natijada X asr oxirida hokimiyat qoraxoniylar qo'lga o'tadi. Qoraxoniylar mintaqaning Yettisuv, Qoshg'ar, Movarounnahr kabi qismlari ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. Xuroson, G'azna kabi viloyatlar esa xuddi shu davrdan boshlab



Nasr Ahmad
tangasi

Somoniylar
otlig'i



X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklarni in'om qilish boshlanadi. Bunday mulk «iqto», unga ega bo'lgan mulk dorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida hatto ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqali zodagonlar: sulola a'zolari – amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Bunday mulk avvaliga bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar o'ziga in'om qilingan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning ma'lum qismini o'zlariga olish huquqiga ega bo'lganlar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Nima sababdan Ismoil Somoniy davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar ishlab chiqqan? Siz yana qanday talablar qo'ygan bo'lardingiz?
2. «Turon xalqlari harbiy san'ati» mavzusidagi ma'lumotlar asosida Somoniylar davridagi harbiy hayotni tahlil qiling, umumiy va farqli jihatlarini aniqlang.
3. Bu davrda Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlarida harbiy boshqaruv qay ko'rinishda edi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Alptegin va Sabuktegin taqdirida qullarga bo'lgan munosabatni ifodalang. Bu davrda qullarga bo'lgan munosabatni Qadimgi Misr, Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistondagi quldorlik tizimi bilan solishtiring.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildira olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatleri hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Somoniylar davrida Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari, Choch, Xorazm, Xuroson viloyatlarida dehqonchilik ishlari yuksak saviyada amalga oshirilgan. Bug'doy, arpa, sholi, paxta, tariq, zig'ir, kunjut, kanop, no'xot, mosh, yasmiq, beda kabi qator ekinlar yetishtirilgan. Yerga ishlov berish samarasi natijasida hosildorlik juda yuqori darajada bo'lgan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik va poliz chilik sohalarida ham yutuqlar shu kabi edi. Uzunning o'nlab navlari, mevalardan olma, shaftoli, o'rik, nok, anjir, behi, olcha, olxo'ri, anor, bodom, yong'oq, poliz ekinlaridan qovoq, qovun (ayniqsa Buxoro qovunlari mashhur bo'lgan), sabzavotlardan baqlajon, sabzi, piyoz kabilar yetishtirilgan. Dehqonchilik solig'i – xirojdan xazinaga tushadigan daro mad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga

katta e'tibor berdilar. Movarounnahr viloyatlarining ichida eng ko'p nufuzli hudud Farg'ona vodiysi bo'lganligini tushunib olish qiyin emas. Farg'ona viloyatida ko'plab shaharlar bo'lgan. Uning poytaxti shu davrlarda Axsikent bo'lib, shaharning kattaligi (aylanmasiga) 3 farsang masofaga cho'zilgan, uning ichida bog', kanallar va bir qancha hovuzlar bo'lgan. Axsikentning atroflarida (devordan tashqarisida) ham bog'lar, daraxtzorlar mo'l bo'lib, ular bir-birlaridan uzilmasdan 2 farsang masofagacha cho'zilib ketgan.

Istaxriy (arab geografi)

Bu davrda shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zga radi. Turon xalqlari va arab madaniyatining qorishuvi natijasida katta-katta gumbazli toq-u ravoqli va peshtoqli imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko'tardi. Shaharlar hunarmandchilik markaziga aylandi. Samarqandda yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining ko'pchilik mahsulotlari va charm mollari bilan, Iloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda ku mush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Xorazmda qayiqsozlik taraqqiy topadi. Xorazm va Termizda ya sal gan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Orol dengizigacha mutasil mol tashib, savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilgan. Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta o'ringa ega edi. Buxoroning Zandana qishlog'ida to'qilgan mallarang bo'z «zandanichi», Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan mato «vadoriy» nomlari bilan Sharqda mashhur edi. Farsax yoki farsang – taxminan 6 kmga teng masofa o'lchov birligi. Amalda farsax uzunligi turli hududlarda farqlangan. Markaziy Osiyoda bu masofa odatda qadamlar bilan o'lchangan va 12 000 qadamga teng bo'lgan. Tashqi savdo muomalasida sar roflik cheklaridan keng foy da lanilgan. Savdogarlar o'zi bilan ko'p miqdor da pul olib yurmas edilar. O'z pullarini ular shahardagi sarrofl ar dan biriga topshirib, undan tegishli hujjat – chek olardilar. Mo'l jallangan shaharga borishlari bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'laligicha qaytarib olish mumkin edi. Ichki bozorlarda «fals» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga – dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek, sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi viloyat hokimlari ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan Marv, Samar qand, Buxoro va Shoshdagi davlat zarbxonalarida so'qi lar edi. So mo niylar «ismoiliy», «muham ma diy» nomlari bilan yuri tilgan bir necha xil kumush dir hamlar chi qar gan edilar. Ular orasida «ismoiliy» tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, ular asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan. «Chek» so'zi forscha atama bo'lib, o'sha vaqtda ham bu so'z ayni ma'noda ishlatilgan. Pishiq g'isht ma'muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy material bo'lib qoldi. Turar joy binolari qurilishida esa sinchli konstruksiya keng tarqaldi. Pardoiz ishlarida somonli loy suvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar, sirlangan koshin va naqshlar o'yilgan sirlangan yaxlit pishirilgan sopol taxtachalar — parchin (mayolika) ishlatish usuli kashf etildi. Eng qadimiy obidalardan Qadimiy Xorazmdagi Qavat qal'a, Samarqand (Afrosiyob)dagi somoniylar qasrining bir qismi va Termiz yaqinidagi Qirqqiz qal'asini qayd etish mumkin. Bularning har uchasi ham xom g'isht va paxsadan bunyod etilgan. Afrosiyobdagi somoniylar qasrining bir qismi hisoblanuvchi binoning old tomoni yogoch ustunli, peshayvonli bo'lib, o'rtada tomi gumbaz bilan yopilgan katta xona va uning ikki yonida yana qo'shimcha xonalari bo'lgan. Asosiy zal ohaktoshli ganchning ichiga tolasimon o'simliklar qo'shilgan materialdan juda nafis o'ymakorlik usulida hashamdor qilib ishlangan.



Somoniylar davriga oid siyohdon

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Iqtisodiy hayotning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Fikr bildirishingizda tinchlik, rivojlanish, ilm, intilish, bag'rikenglik kabi so'zlardan foydalaning.
2. Agar dehqonchilik solig' idan tushadigan daro mad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplasa, davlat dehqonchilikka qanday munosabatda bo'ladi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Savdo garlar o'z pullarini shahardagi sarroflardan, ya'ni pul almashtiruvchilardan biriga topshirib, undan tegishli hujjat – chek olardilar. Ushbu harakat sizga bugungi kundagi qaysi tizimni eslatdi?

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

44 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 7-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**